


2021- yil yanvar-mart oylarida Toshkent viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-mart oylarida Toshkent viloyatida jami **1 880,8** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2020- yilning mos davriga nisbatan **130,3 %**ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi %da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3,6 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 492 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili, bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **105,8 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **52,5 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **140,0 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **7,6 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **126,7 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **39,9 %**) o'sishidir.




Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da
	2020- yil 1- aprel	2021- yil 1- aprel	
Toshkent viloyati	3161	3653	115,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	164	168	186,7
Olmaliq	190	221	245,6
Angren	227	271	301,1
Bekobod	154	175	194,1
Ohangaron	96	116	128,9
Chirchiq	255	286	317,8
Yangiyo'l	80	80	88,9
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	90	97	107,8
Ohangaron	73	78	86,7
Bekobod	108	108	120,0
Bo'stonliq	112	144	160,0
Bo'ka	84	118	131,1
Quyi Chirchiq	81	95	105,6
Zangiota	209	249	276,7
Yuqori Chirchiq	189	212	235,6
Qibray	292	371	412,2
Parkent	99	108	120,0
Piskent	70	77	85,6
O'rta Chirchiq	200	207	230,0
Chinoz	97	118	131,1
Yangiyo'l	156	181	201,1
Toshkent	135	173	192,2



Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra (ulushi %da)




Ma'lumot uchun: Viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qibray tumanida (10,2 %), Angren (7,4 %) va Chirchiq shaharlarida (7,8 %) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **388,8** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **185,9 %** oʻsish koʻrsatkichiga erishildi. Jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan 6,1 % punktga koʻpayib, **20,7 %**ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, %da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Qibray (jami qurilish ishlari hajmining **14,2 %**i yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan **189,1%**), Zangiota (jami qurilish ishlari hajmining **13,6 %**i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **165,1 %**) va Yuqori Chirchiq (jami qurilish ishlari hajmining **11,6 %**i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **281,9 %**) tumanlariga toʻgʻri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **48,3 %** to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-mart oyi ko'rsatkichiga nisbatan **13,4 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **102,9 %**ni tashkil etgan holda **908,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **31,0 %**ni tashkil etdi yoki **583,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **167,5 %**ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **70,0** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi yoki 2020-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan o‘shish sur‘ati **325,9** %ga teng bo‘ldi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1810,8** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati **709,2** %ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **3,7** % va **96,3** %ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, %da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2021- yil yanvar-mart oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi, %da
Toshkent viloyati	1880,8	130,3	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	63,4	102,8	3,4
Olmalik	62,7	103,2	3,3
Angren	70,7	113,9	3,8
Bekobod	63,3	108,1	3,4
Ohangaron	50,6	112,2	2,7
Chirchiq	72,7	101,2	3,9
Yangiyo'l	36,7	105,4	2,0
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	41,7	111,2	2,2
Ohangaron	42,3	105,3	2,2
Bekobod	47,6	100,5	2,5
Bo'stonliq	99,6	101,2	5,3
Bo'ka	42,1	100,5	2,2
Quyichirchiq	46,1	124,2	2,5
Zangiota	255,4	165,1	13,6
Yuqorichirchiq	218,8	281,9	11,6
Qibray	267,3	189,1	14,2
Parkent	89,1	102,6	4,7
Piskent	46,9	100,6	2,5
O'rta Chirchiq	78,1	109,0	4,2
Chinoz	44,9	135,4	2,4
Yangiyo'l	56,2	100,8	3,0
Toshkent	84,8	108,5	4,5



Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2021- yil yanvar-mart oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

1 Qibray
267,3

2

Zangiota
255,4

3 Yuqori Chirchiq
218,8



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

1 Ohangaron t
42,3

2

Oqqo'rg'on t
41,7

3 Yangiyo'l sh
36,7



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (71) 202-86-70